ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

BOSHLANG‘ICH TA’LIM ONA TILI DARSIDA O‘QUVCHILARDA KREATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZMI.

Eshpulatova Jang‘il Eshanqulovna
Termiz davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Primqulova Gulandom Xusan qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni takomillashtirish to‘g‘risida fikr mulohazalar bayon etilgan. Unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zarur bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishi va hayotga tatbiq eta olishi. O‘quvchilardagi kreativ qobiliyat motivatsiyalarining o‘rni va ahamiyati haqida. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobilyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, kreativlik, ona tili fani, qobiliyat, erkin fikr, ijodiy mashq.

Абстракт

В этой статье представлены идеи о том, как развивать творческие способности у учащихся начальной школы. Целью программы является обеспечение того, чтобы учащиеся начальной школы приобретали необходимые знания, навыки, квалификации и компетенции и могли применять их в жизни. О роли и значении творческой мотивации у студентов. Описаны особенности развития способностей творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: Начальное образование, творчество, наука о родном языке, способности, свободная мысль, творческие упражнения.

Abstract

This article presents ideas on ensuring the creativity of primary school students. It discusses the need for primary school students to have the necessary knowledge, skills, qualifications and competencies and be able to apply them in life. The role and importance of creative motivation in students. The specific features of developing students' creative thinking abilities are described.

Keywords: Primary education, creativity, native language science, ability, free thought, creative exercise.

Kirish: “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomda ta‘kidlanganidek: “Boshlang‘ich ta’lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o‘zini-o‘zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslariga oid bilimlarni shakllantirish asosiy vazifasi etib belgilangan”[1]. Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim. Boshlang‘ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o‘z-o‘zini

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarni o‘ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o‘rgatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘qituvchilar darsda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta’lim muassasasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli o‘quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zaxirasi mavjud**.**

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).Kreativlikni rivojlantirish uchun darslarda interfaol metodlarni qo‘llash juda muhim. Bu metodlar o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritish, tasavvur qilish va ijodiy yondashuvlarni sinab ko‘rish imkonini beradi. O‘quvchilarga hikoya yoki qissa yaratish, yangi xarakterlar va voqealarni tasavvur qilishni taklif etish. “Agar shunday bo‘lsa ” yoki “Agar bu voqea boshqacha tarzda bo‘lsa, qanday bo‘lardi?” kabi savollar bilan o‘quvchilarning fikrini o‘zgartirishga harakat qilish. O‘quvchilarni guruhlarga ajratib, birgalikda biror mavzu yoki hikoya yaratishga undash. Ona tili darslarida ijodiy yozuv mashqlarini amalga oshirish o‘quvchilarda kreativ qobiliyatni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Masalan:

- O‘quvchilarga biror bir mavzu berib, shu mavzuda hikoya yozishni so‘rash.

- O‘quvchilarga biror bir surat yoki voqea berib, uni tasvirlab yozish vazifasini berish.

- O‘quvchilarga yozishni boshlashda yordam beradigan shablonlar, masalan, "Bir kuni men o‘zimni … deb his qildim", "Men uchrashgan odam …" kabi iboralar bilan yozuvlarni boshlashni taklif etish.

Kreativ fikrlash qobiliyatini rag‘batlantirish uchun o‘quvchilarga muammoli vazifalar va savollar berish samarali usullardan hisoblanadi. Bunday savollar o‘quvchilarda analitik fikrlash va original yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan:

-"Agar biror kishi o‘zining orzusini amalga oshirishni istasa, nima qilish kerak?"

-"Hikoyadagi qahramon qanday qilib muammoni hal qilishi mumkin?"

-"Qanday qilib bunday vaziyatda turli xil xulq-atvorlarni tasvirlash mumkin?"

Boshlang‘ich sinflarga dars o‘tishda asosan o‘yin usullaridan, interfaol metodlardan, modulli texnologiyalardan, noan’anaviy dars shakllaridan, fanlararo integratsiyadan foydalanish mumkin. Bu metodlarning hammasi ham bolalarda mustaqil ishlashni, o‘z fikrini erkin bayon qila olishni, keng fikrlashni talab etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, zamonaviy ta’lim metodikasini bilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida nutqiy savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa fanlar ta’limini ushbu fansiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor ona tili darslarida yuzlashadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslari orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo‘l ochiladi. Shu maqsadda ona tili darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, matnlar kiritiladi.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida o‘rganiladigan matnlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma’naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. Bu esa o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o‘quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o‘quvchi ma’noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha “construct” – yaratmoq deyiladi). O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi.

Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bular an’anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi” deganda ko‘proq o‘quvchining o‘qish strategiyasini nazarda tutmoq muhim. Matn turiga hikoya, ertak, she’r, maqolni kiritsak, shakli kitob, gazeta, jurnal, telefon va boshqa narsalarni hisoblash mumkin. Demak, o‘quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ehtiyojlari, qiziqishlari, o‘rgangan narsalari muhim ahamiyat kasb etib qolaveradi.

Xalqaro tadqiqotlarda matnni tushunish to‘rtta jarayonga asoslanib baholanadi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma’lumotni topish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish, uyg‘unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

Ma’lumki, Ona tili fanini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib va tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi [1, 4-b.].

Ona tili fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta’lim berishda kommunikativ yondashuv, ya’ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e’tiborda bo‘lishi lozim.
2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning qo‘llanishini o‘rgatishga asoslaniladi.
3. Grammatik savodxonlik doirasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgalar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga e’tibor qaratiladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

4. O‘quvchining o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e’tibor qaratiladi.
5. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, “so‘zni hazm qila olish” imkoniyatlari e’tiborga olinadi.
6. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.
7. Yozma nutq bilan bog‘liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda bolaning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e’tibordan chetda qoladi. “Ona tili darsligida ushbu jihatlarga e’tibor qaratilgan: noto‘liq matnni to‘ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Demak, boshlang‘ich ta’limda ona tili fanidan dars mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni yuqorida keltirilgan tamoyillar asosida olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ona tili darslarida o‘quvchilar bilimi tashxis etish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasini baholashda shakllantiruvchi va xulosalovchi baholash usullaridan foydalaniladi.

Kimdir ko‘rganda o‘zlashtirsa, kimdir eshitganda yaxshiroq tushunadi. Bu esa o‘qituvchidan bir vaqtning o‘zida turli usullarni qo‘llash va o‘quvchilarni baholashda ham bunga e’tibor qaratishni talab etadi.

O‘quvchilarning o‘zlashtirishiga ***ko‘rish, eshitish, o‘ylash, his qilish*** ta’sir qiladi. Bularni metodik tilga tarjima qilsak, quyidagicha bo‘ladi: ***amaliy faoliyat, tadqiqot, muammoni yechish, o‘yinlar, rolga kirishish.***

O‘qituvchi aynan shular orqali o‘quvchining o‘zlashtirgani yoki o‘zlashtirmaganini aniqlashga urinishi kerak.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Boshlang‘ich ta’limda “Ona tili” fanida kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nafaqat savodxonligini, balki mustaqil fikrlash, obrazli tasavvur qilish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Pedagoglar bu jarayonda noan’anaviy, erkin va qiziqarli metodik yondashuvlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.Bundan tashqari ona tili darslarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish metodik tizmi o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish, va nutq madaniyatini oshirishda yordam beradi. Bu jarayon orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini yaratish, mustaqil o‘ylash va boshqalar bilan hamkorlikda ijodiy ishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalar, konsepsiyalar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli, faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. O’quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya’ni pedagogik kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot komunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

maqsadga muvofiq. Qobiliyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirsa, erkin fikrlashga imkon bersa, bunga o’qituvchining birgina so‘zi va saboqlari sabab bo‘lishi mumkin!

Adabiyotlar.

1. “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizom 3-bob 12 bandi
2. Eshpulatova Jang`Il Eshonqulovna. (2023). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS. International Journal of Pedagogics, 3(03), 25–31.
3. Zhangil ESHPULATOVA. (2023). CRITERIA FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, *27*, 1-5.
4. KOMPETENTLI YONDOSILISh ASOSIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH. (2025). *EduVision: Pedagogika va ta'lim sohasidagi innovatsiyalar jurnali* , *1* (2), 164-169.
5. Eshpo‘Latova, J. E. (2024). MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O ‘QUVCHILARDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH. *Inter education & global study*, (3 (1)), 139-146.
6. Eshpo‘Latova J. E. MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O ‘QUVCHILARDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 3 (1). – С. 139-146.
7. Eshpulatova Jang`Il Eshonqulovna, . (2023). BAŞLANGICH SIF O'QUVCHILARINING IJODLIK MAKORATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Xalqaro Pedagogika jurnali* , *3* (03), 25–31. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue03-05
8. Eshanqulovna, E. L. J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish shakl va metodlari.
9. Eshanqulovna, E. L. J. I., & Shopoatovna, T. L. B. (2024, February). BOSHLANGICH SINF O ‘QUVCHILARDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 2, pp. 68.